

## IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI YUBKA TIKISHGA O'RGATISH TEXNOLOGIYASI

**Shog'ulomova Zilola Saydaxmatovna**

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar  
maktabi "Tikuvchilik" yo'nalishi Ishlab chiqish ta'limi ustasi*

**Annotatsiya:** Tikish-o'quvchi qizlarga ishonch va nafosat tuyg'usini beruvchi mahorat. O'z kiyimi yoki aksessuarlarini yaratish o'ziga bo'lgan ishonch va mustaqillikni ta'minlovchi mahoratdir. Kiyim odam tashqi qiyofasini o'zgartirishda katta rol o'ynaydi. Kiyim kishining badiiy didini ifodalaydi, madaniy saviyasini belgilaydi, shaxsni harakterlaydi. Ushbu maqolada o'quvchi qizlarga ayol-qizlar yubkasini tikish texnologiyasini o'rgatish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kiyim, yubka, model, gazlama, o'lcham, tikish, andoza, belbog'li, belbog'siz, to'g'ri yubka, modellashtirish, texnologiya.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga bo'lgan e'tibor kundan kunga oshib bormoqda. Yangi texnologiyalar, o'qitishning noan'anaviy usullari, zamonaviy informatsion texnologiyalar samarali qo'llanmoqda. Shu o'rinda nogiron va imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim tarbiya berish, ularni jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam berish lozimligi kabi masalalar atroflicha davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yurtimizda sog'lom kishilar qatori nuqsonli insonlar hamjamiyatda ma'lum jabhada faoliyat ko'rsatib, o'z o'rnini topishga haqlidirlar. Bunda ularni o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda kasb-hunar egallashlariga sharoit yaratib berish kerak bo'ladi.


Hozirda ko'ramizki, o'z imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramasdan o'qishda, ishda, mustaqil faoliyatda o'z o'rnini topayotgan yoshlarimiz ko'p. Bunday yoshlarni tarbiyalashda, ularga kasb-hunar o'rgatishda imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun maxsus kasb-hunar maktablarining o'rni muhimligini aytmasak bo'lmaydi.

Imkoniyati cheklangan bolalar orasida ayniqsa qizlarning kasb o'rganishi muhim, chunki ular ertaga o'z tengdoshlaridan ajralib qolmasligi, mustaqil ravishda moddiy ehtiyojlarini qoplash uchun o'zi harakat qilishi kerak. Qizlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan asosiy faoliyat turlaridan biri bu tikuvchilikdir. Biz quyida tikuvchilik yo'nalishida kasb o'rganayotgan o'quvchilar uchun kiyimlar, aynan ayol-qizlarning yubkalarini tikish bo'yicha mulohazalarimizni bayon qilamiz.

Kiyim kishiga nisbatan turli his-tuyg'ular uyg'otadi. Masalan: jiddiylik, vazminlik, jo'shqinlik, sovuqlik, oddiylik va boshqalar. Ayollarda ust kiyimida yubkalar asosiy o'rin egallaydi. Yubka asosan turli gazlamalardan tikiladi. Gazlama tanlash yubkaning qachon kiyilishiga bog'liq. Chunki uyda kiyiladigan, ko'chaga kiyiladigan, yozda, qishda kiyiladigan, fasoni to'g'ri, ikki chokli, klinli, klyosh, trapetsiyali yubkalar bor.

Yubkalar silueti bo'yicha to'g'ri, etakka qarab kengaygan va toraygan bo'ladi. Har bir siluet bir necha variantlardan iborat bo'lishi mumkin. Yubka konstruksiyasini chizishda avval siluet tanlanadi, so'ng shaxsiy figura to'laligi hisobga olinib zamonaviy moda yo'nalishiga mos model aniqlanadi.

To'g'ri yubka va uning variantlari ixcham bo'ksali ayollar figurasini kelishgan qilib ko'rsatadi. Uning etak qismi bo'ksa qismiga nisbatan 5-8 sm ga kengroqdir. Etagi kengaytirilgan yubka, beli xipcha (ingichka belli) va bo'ksador ayollarga yarashadi. Yubkani kengaytirish bel vitochkalarini etak chizig'iga o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.




1-rasm. Yubka variantlari: a,b-to'g'ri siluetli yubka; c-etagi kengaytirilgan yubka; d-etagi toraygan yubka; e-gode yubka.

Etak qismi toraytirilgan yubka («hurmach» shaklidagi) bashang kiyimlarda ko'proq uchraydi. Bunday yubkalar qattiqroq gazlamadan tikiladi. Ba'zi hollarda bel vitochkalar o'rniga mayda burmalar loyihalanadi.

Yubka barcha silueta va ularning variantlari to'g'ri siluetli yubka gazlamasi asosida konstruktiv modellashtirish yo'li bilan yaratiladi. Yubkani modellashtirishda uning bo'laklarining o'zaro mutanosibligiga (proportSIONAL ichiga) e'tibor berish kerak.

Yubkani modellashtirishda tikish uchun tanlangan gazlama xossalari va figuraning to'laligini ham hisobga olish zarur.



2-rasm. To'g'ri yubkaning tashqi ko'rinishi.


Yupqa va mayin gazlamalardan etagi kengaytirilgan yubkalar, cho'ziluvchan gazlamadan torroq yubka tikish ma'qulroqdir. «Klesh», «gode» bichimli yubkalarni kengaytirish darajasi (kattaligi) qomat tuzilishiga qarab aniqlanadi.

To'g'ri yubkaga silueti to'g'ri to'rtburchak shaklini beruvchi barcha yubkalar kiradi. Ular tor va kengaytirilgan, bir va bir necha chokli, shlitsali, taxlamali va burmali bo'lishi mumkin.

Yubka vitochkalarining o'rni, soni va kattaligini aniqlash har bir figuraning xususiyatlariga bog'liq. To'g'ri yubkada ort bo'lakda

2 ta, old bo'lakda 2 ta vitochka loyihalanadi. Agar vitochka kattaligi 4 sm dan oshsa, u ikkiga bo'linadi, ya'ni 2 ta vitochka o'rniga 4 ta loyihalanadi. Klassik to'g'ri yubka ort bo'lagi o'rta chokli yoki yaxlit bo'ladi. Taqilma chap yon chokda yoki ort o'rta chokda tikiladi. To'g'ri yubka belbog'li va belbog'siz qilib tikilishi mumkin (2-rasm).

Klassik to'g'ri yubkaning chiziqlar bilan bo'linishi 3-rasmda ko'rsatilgan.



3-rasm. To'g'ri yubkaning konstruktiv chiziqlari va asosiy bo'laklari.

Yubka andozalarini qurish uchun model konstruksiyasi chizmasi, yubkani yig'ish chizmasi (texnologik ishlov berish sxemasi), tikish uchun tavsiya etiladigan materiallar xossalari haqidagi ma'lumotlar aniqlab qo'yiladi. Konstruksiya chizmasida konstruktiv chiziqlar o'rni (bo'ksa, etak) bo'laklardagi montaj kertiklar o'rni aniq ko'rsatiladi. Montaj kertiklar yon choklarida (2 tadan) ort o'rta qirqimida (2 ta), bel vitochkalari o'rnida belgilanadi.

Yubka uchun asosiy (avra) va qotirma bo'laklar andozalari ishlab chiqiladi. Andozalar spetsifikatsiyasi 1-jadvalda, tanda ipi yo'nalishi 2-jadvalda, chok haqi qiymatlari 3-jadvalda keltirilgan.

Andozalar birikuvchi qirqimlar uzunligi va konfiguratsiyasi bo'yicha solishtiriladi va muvofiqlashtiriladi. Andozalar spetsifikatsiyasida bir kiyim komplektiga kiruvchi bo'laklar tartibi va soni keltiriladi. Andozalar qirqilgach, texnik shartlar asosida rasmiylashtiriladi. Har bir bo'lakka markirovka belgisi qo'yib chiqiladi: kiyim nomi, razmeri, bo'yi, bo'lak nomi, bichilgan bo'laklar soni. Andozalarda tanda ipi yo'nalishi va uning yo'l qo'yiladigan chetga og'ish kattaligi, uloq tushadigan joylarda ularning minimal va maksimal kengligini ko'rsatuvchi chiziqlar, nazorat kertiklar aniq ko'rsatiladi.

1-jadval

To'g'ri yubka andozalarning spetsifikatsiyasi

Bo'lak nomi	Belgi manjeti	Soni		Gazlama turi
		Bichiqda	Andozada	
Yubka old bo'lagi	01	1	1	Asosiy
Yubka ort bo'rchagi	02	2	1	Asosiy
Yubka belbog'i	03	2	1	Asosiy
Belbog' qotirmasi	04	1	1	Flizelin
Shlitsa qotirmasi	05	1	1	Flizelin

Ilgich				
--------	--	--	--	--

2-jadval


To'g'ri yubka andozalarida tanda ipi yo'nalishi

Bo'lak nomi	Bo'lak belgisi	Tanda ipi (t.i.) yo'nalishi	T.I. yo'nalishidan mumkin bo'lgan chetga og'ish, %.
Old bo'lak	01	O'rta chiziqqa parallel	5,0
Ort bo'lak	02	O'rta chiziqqa parallel	5,0
Belbog'	03	Belbog' uzunligi bo'ylab	5

3-jadval

To'g'ri yubka andozalarida chok haqi qiymati

Bo'lak nomi	Qirqim nomi	Chok haqi, sm.
Old bo'lak	Bel qirqim	0,7-1,0
	Yon qirqim	1,0-1,5
	Etak	3,0-4,0
Ort bo'lak	Bel qirqim	0,7-1,0
	Yon qirqim	1,0-1,5
	Etak	3,0-4,0
	O'rta qirqim	1,0-1,5
Belbog'	Chetki qirqim	0,7-1,0
	Yon	0,7-1,0



4-rasm. Yubka bo'laklarining andozalari

Yurish paytida erkin harakat qilishni va kiyimni formasini yaxshi saqlashini ta'minlash uchun yubkani ort bo'lagining o'rta chokida, yon choklarida yoki old bo'lagining

o'rtta choklarida shlitsalar tikiladi. Yubka ort bo'lagining o'rtta chokida joylashgan shlitsaga qotirma qo'yib ishlov beriladi.

Yubka yon qirqimlarini o'ngi tomonidan maxsus mashinada yo'rmlanadi. Yubka yon qirqimlari biriktirib tikiladi va yorib dazmollanadi. Yubkaning «molniya» tasma-sini biriktirma chok bilan tikishda, yubka choklari biriktirib tikilgandan va yorib dazmollangandan keyin, tasma bo'lak teskarisidan chok haqi tagiga qo'yiladi va tasma chetidan 4-7 sm masofada bahyaqator yuritiladi. «Molniya» tasma-sining yuqori qirqimlari yubka yuqori chetidan 0,5 sm pastda tikiladi. Taqilma oxirida «molniya» oxirgi tishlaridan 5 mm masofa kesimga perpendikulyar qilib, bahyaqator yurgiziladi.

Tikish qobiliyatini rivojlantirib, o'quvchilar o'zlarining g'urur bilan kiyiladigan o'ziga xos va uslubiy liboslarini yaratishlari mumkin. Muhimi, o'quvchilar ham biror narsani noldan yaratishdan va uni tugatishgacha ko'nikma qoniqish hosil qiladilar. Bu yutuq hissi ularning o'ziga bo'lgan ishonchi va o'z-o'zini hurmat qilishiga uzoq davom etadigan ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'quvchilar o'ziga xos kiyim buyumlari yoki aksessuarlarini yaratish uchun matolar, ranglar va dizaynlar bilan tajriba o'tkazishlari mumkin. Tikuvchilik darslarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir texnologiya kompyuterlashtirilgan tikuv mashinalaridir. Ushbu mashinalar o'quvchilarga tikish shakllarini, aniq matolarni tanlash va tanglik sozlamalarini yanada aniqroq darajaga moslashtirish imkonini beruvchi dasturlashtirilgan moslamalar bilan birga keladi. Ushbu turdagi texnologiya o'quvchilarning minimal nazoratga ega bo'lgan turli xil mato va moslamalar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikma va tajribaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Bunday texnologiyalar ayniqsa imkoniyati cheklangan o'quvchilarga juda qo'l keladi. Kompyuterlashtirilgan mashinalar tikuv jarayonini tezlashtiradi va soddalashtiradi, bu esa o'quvchilarga tikuvning kreativ tomoniga e'tibor qaratish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q.M., Majidova D. Liboslar davr ruhini ifodalaydi. Jizzax, Pedagogik mahorat. T.: 2003 yil.
2. Abdullayeva Q.M., Nigmatova F.U., Gaipova N.S. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va texnologiya asoslari. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, TDPU. 2007-yil
3. G.K.Hasanbayeva. „Kiyim modelini ishlash va loyihalashsini tayyorlash“. Toshkent. O'qituvchi. 1990 yil.
4. Ayollar yengil kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish. "Talqin" nashriyoti, Toshkent – 2003 yil.